



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2022-yil 8-fevral

02/16-3/3-2-son

Oliy ta'lif muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga

Oliy va o'rtalik vazir maxsus vazir tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha **nazorat rejasi**"ga muvofiq vazirlilik tasarrufidagi oliy ta'lif muassasalari o'z faoliyatlariga oid ma'lumotlarni doimiy ravishda rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borishlari yuzasidan tegishli ko'rsatma (29.09.2021 й., 2/16-1/2-18-сон) berilgan edi.

Mazkur topshiriq ijrosi qay darajada ta'minlanganligini o'rghanish maqsadida 2022-yil 8-yanvar holatiga ko'ra, **105 ta** oliy ta'lif muassasasining rasmiy veb-saytlarida **7 ta turdag'i** ochiq ma'lumotlarni joylanganlik holati yuzasidan monitoring o'tkazildi. Monitoring natijasida jami **105 ta** OTMdan **4 tasi (3,9%)**da **barcha** ma'lumotlar saytg'a joylashtirilgan va **58 tasi (55,2%)**da ma'lumotlar **qisman kiritilgan** hamda **36 ta (34,2%)** **OTM** rasmiy saytida talab etilgan ma'lumotlar **mavjud emasligi** aniqlandi. Shuningdek, monitoring natijasi **5 ta (4,7%)** OTMning rasmiy veb-sayti mavjud emasligini, **2 tasi (2%)**ning esa sayti ishlamasligini ko'rsatdi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda, Sizdan mazkur **Nazorat rejasi** vazifalar asosida ta'lif muassasangiz faoliyatiga doir ma'lumotlarni joriy yilning 20-fevraliga qadar joylashtirib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotni 25-fevralgacha vazirlilik Axborot xizmatiga taqdim etishingiz so'raladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar asosida har chorakda monitoring shakllantirilib, natijalari yuzasidan axborot rahbariyatga kiritilishini hisobga olgan holda, **Nazorat rejasi** vazifalar ijrosini shaxsan o'z nazoratingizga olishingizni so'raymiz (*monitoring natijasi va tegishli hujjatlar ilova qilinadi*).

Vazirning birinchi
o'rribbosari



K.Karimov

Ijrochi: E.Bozorov
Tel.: 71-207-15-68